

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja

ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta

tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

| | |
|---|-----|
| JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi | 6 |
| Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor | |
| O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi..... | 11 |
| Jumayev Olimjon Sadulloyevich , tadqiqotchi | |
| "Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari..... | 18 |
| Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant | |
| Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha | |
| asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash..... | 24 |
| Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD | |
| O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini | |
| jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish..... | 27 |
| Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD | |
| Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi | 34 |
| Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent | |
| Yashil turizmni rivojlanish va takomillashtirish istiqbollari..... | 39 |
| Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi | |
| Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar..... | 44 |
| Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi | |
| Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va | |
| innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili..... | 50 |
| Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant | |
| Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati | 56 |
| G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi | |
| Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish | 61 |
| Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi | |
| Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islam moliya bozorining roli..... | 65 |
| Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant | |
| Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar | 71 |
| Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD) | |
| Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций | 78 |
| Урдабаев Жарылқап Ермекбаевич , независимый исследователь | |
| Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий..... | 83 |
| Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант | |
| Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali | |
| foydalanish zarurati..... | 89 |
| Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi | |
| Turizmnii rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni | 94 |
| Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi | |
| Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari..... | 99 |
| Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi | |
| "Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining | |
| innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari..... | 103 |
| Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent | |
| Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan | |
| erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi..... | 108 |
| Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant | |
| Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar | 114 |
| Abdullahayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi | |
| Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va | |
| monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari | 119 |
| Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi | |
| Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country | 125 |
| Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor; | |
| Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher | |



| | |
|--|-----|
| Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari..... | 129 |
| Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi | |
| Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution | 133 |
| Mirziyo Sodikov Odiljon o'g'li | |
| Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili | 138 |
| Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li , magistrant | |
| Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish..... | 144 |
| Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li , tayanch doktorant | |
| Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida | 151 |
| Sharifi Ahmad Sakhrob , mustaqil izlanuvchi | |
| Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны | 156 |
| Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант | |
| Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognози | 161 |
| Xatamov Nurbek Ochildeyevich , erkin tadqiqotchi | |
| Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni..... | 169 |
| G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi , doktorant | |
| Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане | 174 |
| Жуманиязова Феруза , PhD, доцент | |
| Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalg qilish imkoniyatlari..... | 179 |
| Mamatov Bahromjon Shavkatovich , dotsenti, PhD | |
| Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari..... | 184 |
| Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna , mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD) | |
| Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni..... | 190 |
| Nilufar Sharipova , PhD | |
| Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar | 197 |
| Nurillayev Jamoliddin Yarashevich , doktorant, i. f. n., dotsent | |
| Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari..... | 201 |
| O'roqov Mamurali Odil o'g'li , tayansh doktarant | |
| Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi | 208 |
| Razzaqov Jasur Hamraboievich , dotsent, PhD | |
| Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие..... | 212 |
| Рузиева Дилноза Абдусаматовна , независимый исследователь | |
| IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari | 216 |
| Saydullayev Shaxzod Sherzodovich , PhD | |
| Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения | 222 |
| Хажиев Бахтиёр Душабоевич , dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi | |
| Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari | 227 |
| Adizov Sardor Rashidovich , mustaqil izlanuvchi | |
| Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish | 231 |
| Mamatov Sardor Axmatjonovich , mustaqil tadqiqotchi | |
| Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili..... | 238 |
| Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li , PhD | |
| Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана | 243 |
| Мирзахалилова Азизахон Алишеровна , докторант | |
| Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutslonal investorlar faolligini oshirish | 249 |
| Sultanov Maxmud Axmedovich , dotsent, PhD | |
| Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni | 254 |
| Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li , PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li , tayanch doktorant | |
| Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики | 259 |
| Отакулов Махамаджон Каримович , PhD, и.о. доцент | |
| Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati | 264 |
| Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li , PhD | |
| Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari..... | 268 |
| Eshmatov Sanjar Ashirqulovich , mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD) | |



| | |
|--|-----|
| O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari..... | 272 |
| Gadoyev So'hrob Jumakulovich , PhD, dotsent | |
| Vliyanie investitsionnoj politiki na innovacionnuyu deyatel'nost' v Respublike Koreya..... | 277 |
| Алимова София Розумбаевна , nezavisimyyi issledovatel' | |
| Hududlarda oliv ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish..... | 282 |
| Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich , tayanch doktorant | |
| Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potensialni rivojlantirish..... | 290 |
| N. N. Ismatullayeva , tayanch doktarant | |
| Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili..... | 293 |
| Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD | |
| Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili..... | 298 |
| Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant | |
| Formirovaniye kreditnogo portfela sovremenennogo kommercheskogo banka..... | 304 |
| Жураева Нодира Фузулий кизи , assistent kafedry | |
| Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'ortalashni takomillashtirish yo'llari | 310 |
| G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi | |
| Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari..... | 315 |
| Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant | |
| Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish..... | 320 |
| Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganova Zakir Gayibovich , dotsent | |
| Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budgetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari..... | 327 |
| Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mammatmurod o'g'li , magistrant | |
| Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli | 330 |
| Norov Akbar Ruzimamatovich | |
| Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi | 335 |
| Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n. | |
| Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba | 341 |
| N.N.Ro'ziyev | |
| O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalg qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish..... | 350 |
| Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi | |
| Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies..... | 356 |
| Nosirova Charos | |
| MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari | 364 |
| Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant | |
| Qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari | 369 |
| Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi | |
| Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili | 374 |
| Xatamov Nurbek Ochildeyevich , erkin tadqiqotchi | |
| Mezhduanal'nyi opyt razvitiya regionov putem privlecheniya investitsii cheres rynek kapitala | 380 |
| Dadahanova Saida Makhhammadxon kizi , doktorant | |
| Iskusstvennyi intellekt kak instrument upravleniya chelovecheskimi resursami | 386 |
| Xайдарова Малика Шакирджановна , prepodavatel' kafedry | |
| Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili | 396 |
| S.T.Toshaliyeva , PhD | |
| Jahon Savdo Tashkiloti faoliyatini va unga a'zo bo'lish xususida..... | 403 |
| Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi | |
| Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida..... | 407 |
| Nabiiev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi | |
| Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish | 412 |
| Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD | |
| Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish..... | 416 |
| Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent | |
| Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar..... | 421 |
| M.A.Saparova , talaba | |



TIJORAT BANKLARI KAPITALIDAGI MAVJUD DAVLAT ULUSHLARINI KAMAYTIRISH



Olimjanova Nigora Alisherovna
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklari kapitali elementlari, yetarligiga qo'yilgan me'yoriy talablari kabi masalalar olib berilgan. Tijorat banklari kapitali holati tahlil qilinib davlat ulushini kamaytirish bo'yicha amaliy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: tijorat bank, davlat ulushi, kapital, aktiv, passiv, kredit, sof foyda, likvidlilik.

Аннотация: В статье раскрываются такие вопросы, как элементы капитала коммерческих банков, нормативные требования к их достаточности. Анализируется состояние капитала коммерческих банков и вносятся практические предложения по уменьшению доли государства.

Ключевые слова: коммерческий банк, государственная доля, капитал, актив, пассив, кредит, чистая прибыль, ликвидность.

Abstract: The article reveals such issues as the elements of the capital of commercial banks, regulatory requirements for their sufficiency. The state of the capital of commercial banks is analyzed and practical proposals are made to reduce the share of the state.

Key words: commercial bank, state share, capital, asset, liability, credit, net profit, liquidity.

KIRISH

Xalqaro moliya-kredit munosabatlari va dunyo iqtisodiyotining globallashuvi, shuningdek xalqaro va mahalliy doirada banklar o'tasida raqobatning keskinlashuvi ularning kapitallashuv darajasini oshirishning dolzarb masalalarini yuzaga chiqarmoqda. Chunki kapital banklar faoliyatida kutilmaganda vujudga kelishi mumkin bo'lgan zararlardan himoya qilish va aktiv operatsiyalari bo'yicha tegishli me'yornarni aniqlashda asosiy moliyaviy manba hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozidan so'ng bu masalaga jiddiy e'tibor berilishiga qaramasdan qator muammoli holatlar yuz bermoqda. Xususan, "Xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan kapitalning konservatsion buferini 1,8 foizdan 2,5 foizga, asosiy kapitalga bo'lgan talabni 6,3 foizdan 7,0 foizga, umumiyligida bo'lgan talabni esa 9,8 foizdan 10,5 foizga oshirganligi", bundan tashqari banklar tomonidan operatsion risk talablarini buzganligi uchun qo'llanilgan jarimalar 58 mlrd. yevro va 65 mlrd. yevrodan oshganligi, bu masalaning yana ham jiddiyligidan dalolat beradi.

O'zbekiston bank tizimida amalga oshirilayotgan samarali iqtisodiy islohotlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992 sonli Farmonida – Moliyaviy sektorini izchil isloh qilish davomida qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi, ilg'or bank biznesini yuritish hamda ushbu sektorda raqobat muhitini kuchaytirish uchun zarur sharoitlar yaratilishi belgilangan. Xususan, xalqaro standartlarga muvofiq keladigan va moliyaviy sohaga xorijiy investitsiyalar kiritish uchun jozibador huquqiy muhitni yaratadigan O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi hamda "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi yangilangan qonunlari qabul qilindi. Tijorat banklari kapitallashuv darajasini oshirish, xususan, banklarning



kapitalini barqaror manbalar hisobidan oshirish, bunda daromadning rolini oshirish, banklar kapitali tarkibida davlat ulushini kamaytirish, banklarning aksiyalarini aholi va yuridik tashkilotlarga sotish mexanizmini joriy etish va shaffofigini oshirish bilan bog'liq muammolarni hal etishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Bunda tijorat banklari kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha mavjud muammolarni aniqlash va ularni yechimini topish muhim masalalaridan biri etib belgilangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tijorat banklari kapitalining mohiyati, tarkibi uning yetarligi va kapitallashuv darajasini takomillashtirish masalalari xorijlik sinifik va zamonaviy iqtisodchi olimlar – A. Smit, K. Marks, I. Traxtenberg, S. Lukash, V. Kiselev, O. Lavrushin, J. Matuk, Dj. Barlton, D. Mak-Notton, E. Ridlarning ilmiy ishlarida chuqur tadqiq qilingan.

Tijorat banklari faoliyatini sarmoyasiz, ya'ni yetarli darajada kapitallashuvsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu bois tijorat banklari kapitali dastlab banklarni ochish jarayonida, keyinchalik esa Markaziy bankning iqtisodiy normativlarini bajarishda asosiy mezon va bank faoliyatida kutilmaganda vujudga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni qoplashda "himoya yostiqchasi" sifatida muhim moliyaviy manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu masalalar jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan keyingi sharoitida ham eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Professor I. Traxtenbergning fikricha ham banklar kapital yaratuvchi tashkilot hisoblanadi. O'z faoliyatida ular kapitalni tashkil etish va uni to'plash jarayonlarini tezlashtiradi hamda kapitalni qayta taqsimlaydi.

O'tgan asrning 30-yillarda olmon olimlaridan A. Gann kapitalning paydo bo'lishi faqat jamg'arish emas, balki kreditlar ajratilishining natijasi ekanligi, kredit ajratish jarayoni kapitalni tashkil etilishiga nisbatan birinchi hisoblanishi to'g'risida fikr yuritgan.

Bu yerda banklar kredit ajratishlari evaziga olingen daromadlari hisobidan bank kapitalining ko'payib borish jarayoni ko'zda tutilgan. Albatta, bankning dastlabki kapitali uning ta'sischilari mablag'lari evaziga tashkil etiladi, lekin uning o'sib borishida kreditlar ajratish jarayonida hosil bo'ladigan foizli daromadlarining o'rni ham beqiyos ekanligiga e'tibor qaratilmoqda.

Masalan rus iqtisodchilari tomonidan tayyorlangan "Moliya-kredit lug'ati"da "Bank kapitali – kapitalistik banklar tomonidan jalb qilingan kredit, hisob-kitob va boshqa operatsiyalarni bajarishda foydalilaniladigan kapital mablag'lar yig'indisidir" degan ta'rif keltirilgan. Demak, bank kapitali nafaqat uning o'z mablag'lari, balki shu bilan birga chetdan jalb etilgan mablag'lardan iborat ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Bundan tashqari bank faoliyatini boshlash uchun zarur bo'lgan asosiy vosita, ishchi kuchi uchun sarflanadigan mablag'lar ham bank kapitali hisobidan amalga oshiriladi va ular ham kelgusida qo'shimcha daromad keltirilishi uchun xizmat qiladi.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan Sh. Abdullayeva va A. Omonovlar bank kapitaliga quyidagicha ta'rif berishgan: "Tijorat banklarining kapitali barqaror manba bo'lib bankning operatsion jarayonida kutilmaganda yuzaga keladigan zararlarni qoplash imkoniyatini beruvchi o'ziga xos himoya vositasidir". Bu yerda ham yuqorida fikrlar kabi bank kapitalining himoya vositasi ekanligiga urg'u berilgan va uning barqaror manba ekanligi e'tirof etilgan.

Bizning fikrimizcha, bank kapitali to'g'risida to'xtalganda eng avvalo, uning ta'sischilari tomonidan faoliyat yuritish uchun maxsus litsenziya olishga qadar tashkil etilishi lozim bo'lgan mablag'larni nazardan chetda goldirmaslik lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida monografik tadqiqot usuli orqali O'zbekiston tijorat banklari kapitalida davlat ulushini kamaytirish yo'llari tadqiq qilindi. Shuningdek, iqtisodiy-statistik usul yordamida tijorat banklari kapitalida davlat ulushini kamaytirish yuzasidan amalii takliflar keltirilib ushbu yo'nalish bo'yicha metodikalar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi davrda dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlarda tijorat banklari kapitalining tarkibini shakllantirishda va uning yetarlik darajasini belgilashda Xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan standartlardan asos sifatida foydalilanilmoqda. Bazel qo'mitasi faoliyatining asosiy yo'nalishi bank tizimi uchun o'z kapitaliga sifat va miqdor jihatdan yetarli talablarni o'rnatish yo'li bilan mustahkam faoliyatni ta'minlashdan iboratdir. Bu o'rinda asosiy hujjat bo'lib, 1988-yilda Markaziy bank vakillari tomonidan ishlab chiqilgan va 1993-yilda amaliyotga joriy qilingan kapital va risk bo'yicha Bazel-I kelishivi hisoblanib, unda kapital yetarligi me'yorini hisoblash uslubi keltirilgan.

Kapital yetarligini aniqlash bo'yicha ishlab chiqilgan mazkur uslub kapital summasi bilan bank aktiv operatsiyalarining riskliligi o'rtasida o'rnatilgan bog'liqlikka asoslanadi. Ushbu bog'liqlik o'z kapitalini riskka tortilgan aktivlarning jami miqdoriga yoki potensial kreditlar, investitsiyalar hamda boshqa quyilmalar bo'yicha yo'q-



tishlarning jami miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi. Ushbu standartda kapital sifat jihatidan ikkita yirik qismga ajratilgan va ularning har biriga nisbatan yetarlilik darajasi aniqlangan. Bazel standarti bo'yicha tijorat banklari kapitalining yetarliliqi aniqlanayotganda ularning aktivlari risk darajasiga ko'ra o'zaro farqlanadi. Shuningdek, ushbu standart tijorat banklarining balansdan tashqari aktivlarining risk darajasini ham hisobga olgan holda kapital yetarliligini ta'minlashni nazarda tutadi.

1-jadval: O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kapitalining tarkibi va dinamikasi, foizda

| Kapital manbalari | 2019-y. | 2020-y. | 2021-y. | 2022-y. |
|---|---------|---------|---------|---------|
| Ustav kapitali | 68,9 | 64,6 | 69,8 | 61,7 |
| Qo'shimcha kapital | 0,5 | 0,5 | 0,3 | 0,3 |
| Zaxira kapitali | 15,3 | 16,3 | 8,7 | 11,0 |
| Taqsimlanmagan foyda | 15,3 | 18,6 | 12,1 | 14,9 |
| Joriy yilning sof foydasi | | | 9,1 | 12,0 |
| Subordinatsiyalashgan qarz majburiyatları | | | 9,1 | 12,0 |
| Jami kapital | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |

Manba: www. cbu. uz. - internet sayti ma'lumotlari asosida tuzildi.

Shuningdek, tahlil qilingan davr mobaynida tijorat banklari jami kapitali tarkibida subordinatsiyalashgan qarz majburiyatları hamda konsolidatsiyalashgan sho'ba korxonalarga qilingan qo'yilmalar yuzaga kelmayan. Tijorat banklarida subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlarining mavjud emasligi tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlar bozoridagi mavqeining zaifligidan dalolat beradi. Chunki subordinatsiyalashgan qarz majburiyatları tijorat banklariga uzoq muddatli resurslarni jalb qilishning qulay va kam xarajatli vositasi hisoblanadi (1-jadval).

Bizning fikrimizcha, tijorat banklari jami kapitali tarkibida ustav kapitali ulushini pasayishiga yo'l qo'ymaslik lozim, chunki ushbu manba, birinchidan barqaror manba hisoblanadi, ikkinchidan jalb qilingan mablag'larga nisbatan arzon moliyaviy mablag'lardandir. Shuningdek, mamlakatimiz tijorat banklari kapitali tarkibida qo'shimcha kapital ulushini ham pasayishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Tahlil davrida banklarning qo'shimcha kapitalining bank kapitalidagi ulushi ham kam miqdorda 2020-yilda 0,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021 va 2022-yil holatiga kelib bu ko'rsatkich 0,2 foizga punktiga kamayib 0,3 foizni, ya'ni ushbu ma'nbaning ulushi juda past darajani tashkil etadi, bu, albatta, mamlakatimiz tijorat banklari aksiyalarining moliya bozorlarida nufuzi pastligidan va oldi-sotdi jarayoni shaffofsiz ekanligidan dalolat beradi.

Xalqaro bank amaliyotida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi mamlakatimiz tijorat banklarining ham jahon bank tizimiga integratsiyalashuvini Jadallashtirishni talab etmoqda. Ammo bank sohasidagi hozirgi holat tahlili bank sektorida davlatning yuqori darajadagi aralashuvni, davlat ishtirokidagi banklarda menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi, iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning past darajasi kabi bank sektorini iqtisodiy yangilanishlar va jamiyat ehtiyojlariha mos ravishda rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan jami 33 ta bankdan 13 tasining kapitalida davlat ishtiroki mavjud bo'lib, ularning kapitali bank tizimi jami kapitalning 87 foizidan ko'prog'ini, aktivlari esa umumiyligi aktivlarning 85 foizidan ko'prog'ini tashkil qiladi. Davlat ulushining bank sohasida yuqoriligi banklararo raqobat va bank xizmatlari sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Bank sohasida davlat ulushini kamaytirish, banklarni transformatsiya qilish va xizmat ko'rsatish sohasi yaqin bo'lgan banklarni qo'shish orqali faoliyatini optimallashtirish hozirgi kundagi dolzarb masalalardandir. Yuqorida keltirilgan kamchiliklarni bartaraf etish, avvalo, tijorat banklarini baholashdan boshlanadi. Tijorat banklarini bozor qiymatida baholash orqali bankning joriy holatining tahlili, uning korporativ boshqaruvining bank foydasiga ta'siri, bank aksiyalarining foydalilik darajasi, bankning keljakda o'z aksiyadorlariga keltirishi mumkin bo'lgan foydasi va boshqalar tahlili amalga oshiriladi.

2-jadval ma'lumotlari orqali umumiyligi kapitali yetarliligi tahlili 2021–2022-yillar oraliq'ida bu ko'rsatkich Bazel talablaridan 2–3 barobar yuqori bo'lgan. 2020-yilda 15,6 foiz bo'lgan bo'lsa, 2021-yilda 23,5% ni tashkil etgan. Tahlil natijalaridan ko'rinish turibdiki, respublikamiz tijorat banklarida kapital yetarlilikiga qo'yilgan talablar yuqori darajada ta'minlangan.



2-jadval: O'zbekiston Respublikasi bank tizimining kapital yetarliligi ko'rsatkichlari

| Ko'rsatkichlar nomi | 2021-y. | | 2022-y. | |
|---|------------|----------------|------------|----------------|
| | mlrd. so'm | ulushi, foizda | mlrd. so'm | ulushi, foizda |
| I darajali kapital | 22 146,3 | 91,4 | 43 659,2 | 83,2 |
| Asosiy kapital | 22 060,6 | 91,0 | 43 621,6 | 83,1 |
| Qo'shimcha kapital | 85,6 | 0,4 | 37,6 | 0,1 |
| II darajali kapital | 2 084,9 | 8,6 | 8 807,5 | 16,8 |
| Jami regulyativ kapital | 24 231,1 | 100,0 | 52 466,8 | 100,0 |
| Kapital yetarliligi ko'rsatkichi, foizda | | 15,6 | | 23,5 |
| I darajali kapital yetarliligi ko'rsatkichi, foizda | | 14,3 | | 19,6 |

Manba: www. cbu. uz- rasmiy sayt ma'lumotlari.

Tijorat banklarining kapitallashuvini oshirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida 2021-yil yakunlari bo'yicha bank tizimining umumiyligi oldingi yildagiga nisbatan 20,2 foizga oshib, qariyb 9,4 trln. so'mni va kapitalning yetarlilik darajasi ko'rsatkichi umumiyligi qabul qilingan xalqaro standartlardan deyarli 3 barobardan ziyyodni tashkil qildi.

Shunisi ahamiyatga molikki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va uning xalqaro bank tizimiga salbiy ta'siri, bank faoliyatini tartibga solishdagi mavjud nuqson va kamchiliklar, umuman olganda, inqiroz saboqlaridan kelib chiqib, banklarda likvidlilikni tartibga solishga nisbatan talablarni kuchaytirish xalqaro bank hamjamiyati tomonidan ustuvor yo'naliishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining "Bazel-3" deya atalmish yangi talablarining muhim tarkibiy qismi hisoblangan "Likvidlilik riskini o'lchash, standartlar va monitoring bo'yicha xalqaro yondashuvlar" nomli hujjatda tijorat banklari likvidlilikini tartibga solishni tubdan isloh qiliш bo'yicha yangicha yondashuvlar berilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur maqolada tijorat banklari kapitalida davlat ulushini kamaytirish bo'yicha olib borgan tahlillar va kelingan xulosalar natijasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Tijorat banklari kapitali nafaqat ular uchun "himoya vositasi", balki uzoq muddatli investitsiyalarni amalga oshirish manbasi sifatida xizmat qilmoqda. Chunki bank kapitali banklar uchun nafaqat faoliyatni tashkil etish asosi, uni rivojlantirish, faoliyatini kengaytirish manbaasi bo'lib qolmoqda. Shu bois banklarning kapitallashuv darajasini barqaror manbalar sifatidan doimiy ravishda oshirib borish lozim.
2. Banklarning kapitallashuvi jarayonlarida ular faoliyatining daromadliligi asos bo'lib hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, bank kapitali tarkibining 57 foizidan ortig'i to'g'ridan to'g'ri bank faoliyatidan olingan daromadlardan tashkil topadi, qolgan 43 foizini tashkil etuvchi elementlar aksiyadorlarning pul mablag'lari hisobidan shakllantiriladi. Bu o'z o'zidan banklarning daromadlari tarkibida foizli daromadlari ulushini yuqori darajasini ta'minlash zarurligini anglatadi.
3. Mamlakatimiz tijorat banklari kapitali tarkibida subordinatsiyalashgan qarz majburiyatları va konsolidatsiyalashgan sho'ba korxonalariga qilingan qo'yilmalarning mayjud emasligi hamda emission daromad ulushining juda past darajadaligi kuzatildi. Buning uchun tijorat banklari aksiyalari bozor bahosini oshirish hisobiga qo'shimcha kapital hajmini oshirish zarur.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. К. Капитал. Критика политической экономики. – Т3 КН 2 М.: 1989. – С. 442.
2. Трахтенберг И. Денежное обращение и кредит при капитализме. – Москва.: 1962. - С. 547.
3. Проф. И. О. Лаврушина М- "Ф и С" 2001г. С-74. В. В Киселев. "Управление банковским капиталом" Москва "Экономика" 1997. С-18.
4. Жан Матук. "Финансовые системы Франции и других стран" 1том перевод с англ. Москва "Финстатикформ" 1994г С-25.
5. Лаврушин, О. И. (2011) Роль кредита в экономическом развитии / О. И. Лаврушин // Банковское дело. – № 2. – С. 32–38.
6. www. gov. uz.
7. www. review. uz.
8. www. stat. uz.
9. www. UzA. Uz.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

